



## AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITALARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

**ABDULLAEVA SANOBAR BERDIEVNA**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

**MAXMUDOV YIGITALI O'LMASBOY O'G'LI**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

**KARIMOVA RAYXON KAXOR QIZI**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'itish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Ushbu maqolada ta'limda yuqori natijaga erishish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati, turlari va metodlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, talaba, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, bilim, zamonaviy metodlar.

**KIRISH:** Bugungi kunda pedagog-o'qituvchi zamonaviy texnika va texnologiyalardan professional darajada xabardor bo'lishi, shu orqali dars jarayonida talabalarni darsga ko'proq jalb eta olishi muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi, chunki bugungi yoshlarning dunyoqarashi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish hisobidan ko'plab ma'lumotlarga ega ekanligi barchamizga ayondir. Shu bilan birga talabalar va darsliklar



oʻrtasidagi munosabat, hamkorlikni shakllantirish, ularning darsliklarda berilgan topshiriqlar bilan mustaqil ravishda shugʻullanish koʻnikmasini shakllantirish taʼlim-tarbiya jarayonidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifa pedagogdan dars jarayonini tashkillashtirishda katta masʼuliyat va ijodkorlikni talab etadi. Zamonaviy pedagogik tajribalar talabalarni mustaqil ishlashga oʻrgatish, bilim olishga boʻlgan qiziqishlarini yanada orttirish, shuningdek oʻzimizni va oʻzgalarni baholay olishni talab etadi. Pedagog topshiriqlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qoʻshimcha didaktik materiallar, turli vositalardan foydalanish orqali samaradorlikka erishishi mumkin.

**MUHOKAMA:** Zamonaviy oʻqitish pedagog-oʻqituvchidan katta ijodiy kuch talab etadigan va alohida tayyorgarlik bilan oʻtiladigan murakkab taʼlim jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon talabalarga mustahkam bilim beruvchi materiallarni oʻzida aks etgan taʼlim kontseptsiyasini ishlab chiqish va har bir mavzuning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olib darsga tayyorgarlik koʻrishni taqozo etadi. Ijodiylik printsipi asosida tashkil etilgan bunday darslar orqali, albatta, yuqori samaradorlikka erishiladi. Odatda, darslar maʼlum bir mavzuni oʻzlashtirgandan soʻng barcha talabalarni darsga qatnashtirgan holda oʻqituvchi nazoratida oʻtkaziladi. Bunday darslarda turli metodik, pedagogik va psixologik maqsadlarni oʻzida mujassam etgan natijalarni kuzatishga erishish mumkin: talabalarning maʼlum mavzu boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalari nazorat qilinadi; oʻrganuvchilarning mashgʻulotga nisbatan jiddiy munosabatlari shakllantiriladi; bunda pedagog-oʻqituvchining mashgʻulotdagi minimal ishtiroki kuzatiladi. Yuqori samara beruvchi noanʼanaviy uslublar sifatida mashgʻulot-oʻyin, mashgʻulot-diskussiya, mashgʻulot-tanlov kabi taʼlim turlarini misol keltirish mumkin. Zamonaviy jamiyat rivojlanishi shuni taqozo etadiki, bugungi kunda har qanday sohani, shu jumladan tibbiyot sohasini ham kompyuter va axborot vositalarisiz tasavvur etish qiyin. Shu nuqtai nazardan taʼlim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish pedagog-oʻqituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi, pedagogik faoliyatning xilma-xilligini taʼminlaydi. Bu taʼlim turi



nafaqat talabalarni mustaqil bilim olishga undaydi, balki o'rganish jarayonining qiziqarli, jonli bo'lishiga zamin yaratadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar muhim didaktik xususiyat-ko'rgazmalilik xususiyatini kasb etadi. Ushbu ta'lim texnologiyasi ma'lumotlarga boy, chiroyli, xilma-xillilik, bilimlarning real hayotga yaqinroqligi bilan yanada tushunarli bo'lishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari axborot-kommunikatsiya texnologiyasi ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, kreativlikni shakllantirish, ko'zlangan maqsadga tezroq va osonroq yetish uchun imkoniyat yaratadi. Har bir metod o'zida ijobiy va salbiy xususiyatlarni mujassam etadi hamda har qanday metodni xohlagan dars mashg'ulotlarida qo'llash ham to'g'ri kelmaydi, ular dars turiga qarab qo'llanadi (takrorlash, yangi mavzu bayoni yoki taqdimot). Ko'p hollarda bu pedagogning o'ziga ham-uning axborot texnologiyasining o'zlashtirganlik darajasi, o'rganiladigan mavzu doirasidagi professionallik kompetentsiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, pedagog-o'qituvchilarning hammalari ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari borasidagi bilimlari yetarli va o'z darslarida undan bimalol foydalanishadi, deb ayta olmaymiz. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi metodik ta'minot yetarli emasligi, bu sohada hali qilish kerak bo'lgan vazifalar ko'p ekanligidan dalolat beradi. Dars jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish mavzuni puxta o'zlashtirish samaradorligini ko'taradi. Talabalarning mustaqil ravishda multimediyali taqdimotlar va loyihalarni tayyorlashlari ularning axborot texnologiya sohasidagi bilimlarining natijasi sifatida ko'rsatish mumkin. Dars jarayonida interaktiv doskalarni audio vositalar bilan birga ishlatish ko'rgazmalilik printsipini anglashni osonlashtiradi. Bunda ko'rgazmalarni nafaqat taqdimot shaklida namoyish etish mumkin, balki sinf taxtasi ham maxsus markeri va boshqa imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa, darslarda talabalarda ma'lumotlar manbasining foydali jihatlari va kamchiliklarni aniqlash qobiliyati, ular bilan ishlashning mos texnologiyasini tanlash,



ma'lumotlarni qayta ishlashni o'rganish jarayoni kabi muhim kompetentsiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tashkil etilgan darslarni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: Kontseptual bosqich-ushbu bosqichda bilimni shakllantirish, mustahkamlash, umumlashtirish yoki takomillashtirishga qaratilgan didaktik maqsad aniqlashtiriladi. Shuningdek, dars mashg'ulotining maqsadi va pedagogik topshirig'idan kelib chiqib ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish zarurati va o'quvchi qobiliyatini rivojlantirish haqida bahslashadi. Shunga ko'ra zaruriy ta'limiy elektron resurslar aniq bir metod yo'nalishi bo'yicha tanlanadi: o'rganuvchi, informatsion-qidiruvli, imitatsion, demonstratsion, nazorat, o'yinli o'rgatuvchi. Texnologik bosqich-didaktik maqsadning talablaridan kelib chiqib, ularning tahlili va tanlanishi, mashg'ulot shakli (rezentatsiya, virtual ekskursiya, o'rganuvchi dars) tanlanadi. Bundan tashqari bu bosqichda pedagog-o'qituvchi texnika va dasturiy ta'minotni (kompyuter multimediyasi, dastur vositalari) aniqlab oladi. Operatsion bosqichda darsning asosiy struktur komponentlari-o'qituvchi-talaba-darslikning o'zaro funktsional aloqlarining yo'llari aniqlashtiriladi.

**NATIJA:** Darsning texnologik xaritasini tuzish orqali mashg'ulot bosqichma-bosqich rejalashtiriladi: har bir bosqichning maqsadi, davomiyligi, talabalarning darsdagi ishtirokini tashkillashtirish shakllari, o'qituvchining darsdagi faoliyati va vazifalari, darsdagi nazorat shakllari va h.k. Yuqorida keltirilgan imkoniyatlar va kompyuter vositasidan foydalanish orqali nafaqat tajribali pedagog-o'qituvchilar, balki yosh pedagoglar ham yuqori ta'lim samaradorligiga erishishlari mumkin. Darslarda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish quyidagi ta'lim samaradorliklarini o'zida mujassam etadi:

- 1) talabalarning bir soat davomida katta hajmdagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari;
- 2) har bir talabaning mustaqil ishlashi;



3) kommunikativ vaziyat yaratish va bunda o'qish, so'zlab berish, yozish kabi ko'nikmalarga erishish;

4) talabalarning darsdagi ongli faol ishtirokini ta'minlash;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bugungi kunda o'quv va o'rganishning turli sohalarida muhim o'rin tutadi. Bu texnik vositadan foydalanishda bizga turli taqdimotlar, hujjatli filmlar, onlayn arxivlar, Ziyonet portali, oliy o'quv muassasalarining informatsion-resurs markazlari va dunyoning yetakchi kutubxonalari yaqindan yordam beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA:** Shunday qilib, yildan yilga ta'lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ko'proq foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'quv materialini yanada qiziqarliroq, jozibali va ko'rgazmaliroq o'zlashtirishga, talabalarning mustaqil o'rganishlariga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



### **Adabiyotlar:**

1. Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. TIBBIY TA'LIMDA VR TEXNOLOGIYA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1140-1144.
2. Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.
3. Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne'matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
4. Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134-138. Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S. (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF VALUE DIRECTIONS IN YOUTH. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, 1(1), 93-95.
5. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, X. S. (2023). Prospective Directions of Implementation of Modern Information Technologies in Education. Eurasian Journal of Research, Development and Innovation, 17, 7-11.
6. Berdiyevna, A. S., Akramovna, M. M., & Olmasovna, R. P. (2023). Research in the Process of Education of Medical Students Shaping Their Abilities. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 17, 95-99.
7. Berdiyevna, A. S., Ilhomovna, M. Z., & Ogli, K. S. S. (2023). Modern methods of information exchange in polyclinic conditions. Genius Repository, 25, 16-20.
8. Abdullayeva, S., Maxmudova, Z., & Xo'jaqulov, S. (2023). MODERN METHODS OF INFORMATION EXCHANGE IN POLYCLINIC CONDITIONS. Modern Science and Research, 2(10), 304-310.



9. Berdiyevna, A. S. (2024). AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YONALISHLARI VA KELAJAGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 152-157.
10. Абдуллаева, С., & Раупова, Р. (2024). ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ ЎРГАНИШ-БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. Modern Science and Research, 3(1), 91-97.
11. Ilhomovna, M. Z., Berdiyevna, A. S., Shaxboz o'g'li, Y. T., & Mirkobilovna, S. R. (2023). The Importance of IT Technologies in Ultrasound Examinations. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(12), 121-125.
12. Berdiyevna, A. S., Sobirovich, S. O., & Ibrahimovna, N. N. (2023). Distinctive Features of the Distance Learning System in Medical Education: the Opportunity to Learn at a Convenient Time, Place and Environment. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(12), 33-38.
13. Абдуллаева, С. Б. (2023). ТИББИЁТДА ТАЛАБАЛАРГА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЖАРАЁНЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ФАН МОДУЛИНИ ЎРГАТИШДА МОТИВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(12), 27-30.
14. Berdiyevna, A. S., Eshmamatovna, D. N., & Shukhratovna, D. S. (2023). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MEDICAL DISEASE PREDICTION. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(3), 5-9.
15. Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, K. S. (2024). The Role of it in the Field of Medicine, Use Of Computer Technology In Modern Diagnostic Methods. Miasto Przyszłości, 51, 162-166.